

**TUPROQ UNUMDORLIGI VA KUZGI BUG'DOY HOSILDORLIGINI OSHIRISHDA
O'TMISHDOSH EKINLARNING ROLI.****РОЛ ПРЕДЫДУЩИХ ПОСЕВОВ В ПОВЫШЕНИИ ПЛОДОРОДИЯ ПОЧВ И
УРОЖАЙНОСТИ ОЗИМОЙ ПШЕНИЦЫ.****THE ROLE OF PREVIOUS CROPS IN INCREASE OF SOIL FERTILITY AND YIELD
OF WINTER WHEAT.***Bo'riyev Abduvaxob Abdirazzoqovich**Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti, q.x.f.d. (PhD), professor v.b
abduvaxob.boriyev@bk.ru +99891-526-27-07*

Annotatsiya. Kuzgi bug'doydan bo'shagan maydonlarga tuproq unum dorligi saqlash va oshirish maqsadida g'o'za, makkajo'xori, mosh, no'xat, raps kabi o'tmishdosh ekinlarni joylashtirishva ularni kuzgi bug'doy hosildorligiga ta'siri o'r ganildi. Ushbu o'tmishdosh ekinlar jumladan mosh, no'xat, raps kabi tuproq unum dorligiga ijobiy ta'sir etuvchi o'simliklar ekilishi natijasida kuzgi bug'doy hosildorlik ko'rsatkichlari ham ijobiy tomonga o'zgarib borganligi kuzatildi.

Annotatsiya. С селю поддержания и повышения плодородия почв на участках, освобожденных от озимой пшеницы, изучали посев предшествующих культур, таких как хлопчатник, кукуруза, маш, горох, рапс и их влияние на продуктивность озимой пшеницы. В результате посадки растений, положительно влияющих на плодородие почвы, в том числе маша, гороха, рапса, отмечено, что показатели продуктивности озимой пшеницы изменились в положительную сторону.

Annotation. In order to maintain and increase soil fertility in the areas freed from winter wheat, planting of previous crops such as cotton, corn, mung bean, peas, rapeseed and their effect on winter wheat productivity was studied. As a result of the planting of plants that have a positive effect on soil fertility, including mung bean, peas, and rapeseed, it was observed that the indicators of winter wheat productivity changed in a positive direction.

Kalit so'zlar: o'tmishdosh ekin, tuproq unum dorligi, mosh, no'xat, raps, kuzgi bug'doy, ildiz va ang'iz qoldiqlari, o'suv davri, biologik azot, sideratsiya, hosildorlik.

Ключевые слова. предыдущий урожай, плодородие почвы, вигна, рапс, озимая пшенитса, корневые и пожнивные остатки, вегетационный период, биологический азот, сидератсия, продуктивность.

Keywords. previous crop, soil fertility, cowpea, cowpea, rapeseed, winter wheat, root and leg residues, growing season, biological nitrogen, sideration, productivity.

Kirish. Dunyo bo'yicha hozirgi kunda 2,1 mlrd tonna don yetishtirilmoqda, shundan, bug'doy doni yalpi hosilning 759,6 mln. tonnasini tashkil etadi. Bug'doy ekin maydoni 243,5 mln/ga bo'lib, jumladan, AQSh, Germaniya, Xitoy, Hindiston, Braziliya, Avstraliya, Kanada, Rossiya, Ukraina kabi mamlakatlarda zamонавиъ texnologiyalar asosida bug'doy yetishtirilib, dunyo bo'yicha sug'oriladigan sharoitida o'rtacha don hosildorligi hektaridan 3,1 t. ni, lalmikor yerlar sharoitida esa 1,5 t. ni tashkil etadi. 2050 yillarga borib dunyoda don yetishtirish 3 mlrd


tonnaga yetishi ko‘zda tutilmoqda. Kuzgi bug‘doydan bo‘shagan maydonlardan unumli foydalanish uchun jumladan, tuproq unumdarligi va kuzgi bug‘doy hosildorlik ko‘rsatkichlarini oshirishga imkon yaratadi. Shundan kelib chiqqan holda, kuzgi bug‘doyni qisqa navbatlab ekishda dukkakli don ekinlari hamda oraliq ekinlardan keng foydalanish va amaliyotga joriy etish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi [6- 353-394 p.p].

Materiallar va uslublar. Dala tajribalari g‘o‘za, makkajo‘xori, no‘xat, mosh, raps kabi ekinlar ekilishi natijasida tuproq unumdarligiga, uning agrofizik va agrokimyoviy xossalari, kuzgi bug‘doy hosilidorlik ko‘rsatkichini o‘rganishga qaratilgan [1; 145 b].

Dala tajribalari 6 variantda 4 takrorlikda olib borildi. Tajribada har bir paykal uzunligi 60 m, eni esa 7,2 m bo‘lib, har bir paykalning sathi 432 m², shundan hisobga olingani 288 m² ni tashkil etdi. Tajriba variantlari sistematik ravishda bir yarusda joylashtirilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili.


Tadqiqotlarda kuzgi bug‘doy ekilgan nazorat variantida ildiz va ang‘iz qoldiqlari 3,56 t/ga bo‘lishi kuzatilib, o‘tmishdosh ekin g‘o‘za bo‘lganda 3,73 t/ga ni, o‘tmishdosh ekin sifatida makkajo‘xorida 4,27 t/ga, no‘xat va mosh ekilganda 2,55-2,14 t/ga bo‘lib, rapsda esa umumiyligi miqdori o‘rtacha 5,14 t/ga ni tashkil etganligi kuzatilgan (1-rasm).



1-rasm. O‘tmishdosh ekinlarni ildiz va ang‘iz qoldiqlari miqdori, t/ga

Kuzgi bug‘doy ang‘izida dukkakli don va takroriy hamda oraliq ekinlar ekilganda, tuproqda goldirgan o‘simlik qoldiqlari agrokimyoviy tahlil qilinganda azot, fosfor, kaliyning miqdori, dastlabki miqdoriga nisbatan oshganligi kuzatilgan [5; 110-112-b.]

Tadqiqotlarda kuzgi bug‘doy (nazorat) variantida ildiz va ang‘iz qoldiqlari o‘rtacha 3,56 t/ga bo‘lib, N-20,47 kg/ga, P-11,30 kg/ga, K-30,05 kg/ga oziq moddalarni qaytarilishi kuzatilgan bo‘lsa, o‘tmishdosh ekinlardan g‘o‘za va makkajo‘xori ekilganda o‘rtacha 3,73-4,27 t/ga umumiyligi ildiz va ang‘iz



qoldiqlari to‘plagan va tuproqqa N-36,89-23,11 kg/ga P-15,62-12,40 kg/ga, K-47,37-15,61 kg/ga oziq moddalari qaytarilgan.

Kuzgi bug‘doydan so‘ng takroriy ekin sifatida mosh va boshqa dukkakli ekinlarni ekish natijasida tuproqda qolgan ildiz va ang‘iz qoldiqlari evaziga tuproqqa ko‘plab oziqa moddalari qaytarilib, tuproq unumdarligini ijobjiy tomonga o‘zgarishini ta’kidlaganlar [3; 28-b.].

O‘tmishdosh ekin dukkakli-don ekinlari no‘xat, moshdan so‘ng N-24,03-29,48 kg/ga, P-11,71-15,18 kg/ga, K-16,27-28,47 kg/ga miqdorida oziqa elementlari tuproqqa qaytarilganligi kuzatilgan.

Sideratlarning yashil massa hosildorligi aralash holda ekilganda 6,0 t/ga ni tashkil etgan bo‘lsa, sof holda ekilganda esa massasi 3,19 t/ga ni tashkil etganligini ta’kidlagan [2; 38-39-b.].

Tajribaning raps ekilgan variantida esa tuproqda qoldirgan ildiz va ang‘iz qoldiqlari 5,14 t/ga ni tashkil etib, N-30,72 kg/ga, P-17,26 kg/ga, K-49,27 kg/ga oziqa moddalarini qaytarilganligi aniqlangan (2-rasm).

Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, ekin turlari farqlanishidan qat’iy nazar, o‘tmishdosh ekinlarning tuproq unumdarligiga ijobjiy ta’siri yaqqol namoyon bo‘lgan.

Xulosa. Tajribaning nazorat variantida hosildorlik 48,7 s/ga bo‘lgan bo‘lsa, o‘tmishdosh ekinlar ta’sirida, hosildorlik ko‘rsatkichlari nazorat variantga nisbatan no‘xat, mosh, raps ekilgan variantlarda 10,1-11,9-11,6 s/ga qo‘sishma hosil olishga erilishib, eng yuqori hosildorlik no‘xat, mosh, raps o‘tmishdosh ekin sifatida ekilgan variantlarda o‘rtacha 58,7-60,5-60,2 s/ga kuzgi bug‘doy don hosil olinganligi aniqlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari (Metodicheskoe rukovodstvo na uzbekskom yazyke). – Toshkent : O‘zPITI, 2007. – 145 b.
2. Kenjaev Yu. Turli muddatlarda ekilgan siderat ekinlarning o‘sib –rivojlanishi va biomassa hosildorligi. //O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali Toshkent, 2018. -№ 10. - B. 38-39
3. Namozov F. Tuproq unumdarligi va g‘o‘za hosildorligini oshirishda qisqa navbatlab ekish tizimlarini takomillashtirish. doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2016.-B. 28.
4. Oripov R., Xolmonov N., Shonazarov S. Raps v xlopkovo lyusernovom sevooborate. //Problemy intensifikatsii kormoproizvodstva polivnogo zimledeliya. Nauch. trudy Toshkent 1991. S. 21-23.

5. Iminov A., Xoliqovlar O'simliklar tomonidan tuproqdagi oziqa elementlarining o'zlashtirilishi va qaytishi. //Dehqonchilik tizimida ziroatlardan mo'l hosil yetishtirishning manba va suv tejovchi texnologiyalari. Mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ma'ruzalar maqolalari to'plami. T. 2010. -B.110-112.

6. Faures J.M., Svendseu M., Turral H. Reinmentind irrigation. In:Molden, David (ed). Water for fooce, Water for life: A comprehensiya assesment of water management in agricultura londou /Colombo. Sri lonka, /INMI/ Eearthscon. 2007 p.p-353-394.